

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI

**Geografiya fanlarini o'qitishning
innovatsion muhitini loyihalashtirish**

**MODULI BO'YICHA
O'QUV-USLUBIY MAJMUUA**



TOSHKENT-2022



Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: **Sh.Avazov** - Nizomiy nomidagi TDPU "Botanika" kafedrasida p.f.n.professor.

F. Saydamatov - Nizomiy nomidagi TDPU "Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi.

E.Sobirov - Nizomiy nomidagi TDPU "Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida 3-bosqich doktoranti.

Taqrizchilar: **N.R.Alimqulov**- Nizomiy nomidagi TDPU "Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida mudiri, g.f.n., dotsent.

Xorijiy ekspert: PhD doktor Frank Laper - Fransiya (Parij).
Ponter de Parij №10 universiteti.

O'quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2020 yil 27 avgustdagi 1/3.6- sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.



MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI	11
III. NAZARIY MATERIALLAR	23
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	44
V. KEYSLAR BANKI	56
VI. GLOSSARIY	63
VII. FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	66



I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmonlari, 2020 yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-sonli Qarori, 2020 yil 30 sentyabrdagi O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "O'qituvchi va murabbiylar yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir" nomli nutqi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari texnologiya ta'limi yo'nalishida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, texnologiya ta'limini rivojlantirish strategiyalariga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish kompetensiyalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Modulning maqsadi va vazifalari

"Geografiya fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish" modulining **maqsadi**: oliy ta'lim muassasalari geografiya ta'limi yo'nalishida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarining qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida geografik ta'lim mazmunini takomillashtirish, geografiya ta'limini tashkil etishga oid tadqiqotlarning xususiyatlari, rivojlanish tendensiyalari, geografiya ta'limining uzluksiz ta'lim tizimidagi uzviyligining ahamiyati, O'zbekistonda geografiya fani o'qituvchilarini tayyorlash muammolariga oid yangi bilimlar, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdan iborat.

Modulning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- "Geografiya o'qitish metodikasi" yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;



-mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta'minlash;

-mutaxassislik fanlar sohasidagi o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarini o'zlashtirish;

“Geografiya o'qitish metodikasi” yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

Tinglovchi:

- ilmiy-geografik bilimlarning o'ziga xos xususiyatlari, ob'ekti, tuzilmasi, differentsiatsiya va integratsiya masalalari, hamda geografik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlarini;

- qadimgi davrda va o'rta asrlarda geografiya, yangi va eng yangi davrda geografiyaning rivojlanishini;

- O'zbekiston hududidagi geografik tadqiqotlarni;

- amaliy geografiyaning mohiyati, geografik baholash va prognozlash hamda insoniyatning global muammolarini;

- geokologiyaning shakllanishi, rivojlanish tarixi, ob'ekti, predmeti va vazifalarini;

- geokologiyaning nazariy va metodologik asoslarini;

- yer ekosferasi – murakkab global geokotizimligini;

- global o'zgarishlar va insoniyat strategiyasi, geokologiya va atrof-muhit muhofazasi, Orol dengizi va Orolbo'yi muammosi, o'zgaruvchan iqlim sharoitidagi geokologik muammolarni;

- didaktika – geografiya ta'limining pedagogik nazariyasi sifatida ekanligini;

- didaktika va geografiya ta'limi metodikasining ob'ekti, predmeti, vazifalari va asosiy kategoriyalarini;

- geografiya ta'limining xilma-xil modellari, qonuniyatlari va tamoyillarini;

- kasbiy sohasidagi pedagogik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularni tashkil etish va o'tkazishdagi yondashuvlarni;

- tadqiqot natijalarini tahlil qiluvchi axborot tizimlari va dasturlarni ***bilishi*** kerak.

Tinglovchi:

- geografiyadagi yangi va eng yangi metodlardan foydalanish;

- geografiya ta'limi mazmunini tanlash, shakllantirish va loyihalash;



• geografiya ta'limi mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar (DTS, o'quv rejasi, fan dasturi va o'quv adabiyotlari) tayyorlash;

• geografiya ta'limini innovatsion asosda tashkil etish;

• geografiya ta'limi jarayonini tashkil qilish va boshqarish vositalaridan foydalanish;

• geografiya ta'limi sifati va monitoringi yuritish;

• geografiya ta'limida pedagogik nazoratni amalga oshirish;

• geografiya ta'limida o'zlashtirishni nazorat qilish va baholash;

• pedagogik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish, pedagogik tadqiqotlarda statistik metodlar va ulardan foydalanish;

• tanlanmalar va gipotezalarni shakllantirish;

• elektron jadvallar va statistika dasturi yordamida korrelyatsion tahlilini o'tkazish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

• ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion muhitni yaratish;

• oliy ta'limda geografiya fanlarini o'qitishda lokal, xususiy metodik darajadagi texnologiyalardan foydalanish;

• geografiya fanlarini o'qitishning pedagogik texnologiyalarga asoslangan innovatsion muhitini loyihalashtirish;

• shaxs geografik madaniyatining belgilarini yaratish;

• geografiya ta'limi mazmuni va geografik bilish jarayoni geografik madaniyatni shakllantirish;

• geografik madaniyatning tuzilmaviy-tarkibiy qismlari (geografik tafakkur, geografik til, geografik bilish metodlari, dunyoning geografik manzarasi) ni takomillashtirish;

• pedagogik tadqiqotlar natijalari tahlil qilishdagi zamonaviy yondashuvlar, metodlar va vositalardan foydalanish;

• pedagogik tadqiqotlarda statistik metodlardan o'z tadqiqotlarida foydalanish;

• tadqiqot natijalarini tahlil qiluvchi axborot tizimlari va dasturlar yordamida statistik va korrelyatsion tahlilni o'tkazish *malakalariga* ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

• hududiy geografik tafakkur va uning mahalliy, milliy, mintaqaviy, global darajalariga oid tadqiqotlar olib borish;

• geografik taqqoslash, umumlashtirish va geografik mavhumlashtirish.

• geografiya tili (geografik raqamlar; geografik xronologik sanalar; geografik joy nomlari; geografik kartalar tili; geografik til shakllari: ovozli-og'zaki va ovozsiz-yozma)dan o'quv jarayonida foydalanish;

• geografiyadan metodik ishlanmalar tayyorlash;



- talabalarning mustaqil ta'limi va ijodiy izlanishlarini tashkil etish;
- bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini orttirishda vitagen tajribalardan foydalanish;
- talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni nazorat qilish va baholash;
- pedagogik tadqiqotlarda statistik metodlarni o'z tadqiqotlarida qo'llash;
- tadqiqot natijalarini tahlil qiluvchi axborot tizimlari va dasturlarga statistik funksiyalarini kiritish va natijalar tahlilini o'tkazish *kompetensiyasiga* ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Geografiya ta'limi” yo'nalishi bo'yicha mashg'ulotlar nazariy va amaliy shakllarda olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida o'qitishning innovatsion va axborot- kommunikatsiya texnologiyalari hamda interfaol ta'lim metodlari qo'llanilishi nazarda tutilgan: ya'ni,

- nazariy mashg'ulotlarda taqdimotlar, mavzuga oid filmlar hamda kompyuter texnologiyalarini joriy etish;

- amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta'lim metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Geografiya fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish” va “Geografiya fanini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalash” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma'ruza) modulning mavzulari mantiqiy ketma- ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha tinglovchilarga yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligini, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligini, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalaridagi islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'ngi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.



Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar oliy ta'lim muassasalari geografiya ta'limi yo'nalishida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarining qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida geografik ta'lim mazmunini takomillashtirish, geografiya ta'limini tashkil etishga oid tadqiqotlarning xususiyatlari, rivojlanish tendensiyalari, uzluksiz ta'lim tizimidagi uzviyligining ahamiyati, O'zbekistonda geografiya fani o'qituvchilarini tayyorlash muammolarini o'rganishga ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Jami auditoriya soati	Jumladan	
			nazariy	amaliy
1.	Geografiyani o'qitishda talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo'llari.	4	2	2
2.	Innovatsion texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari.	4	2	2
3.	Pedagogik jarayonning xarakteri, borishi va mazmunini o'zgartirishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar.	2	2	
4.	Geografiya darslarida va darsdan tashqari ishlarda zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish yo'lari.	2	2	
6.	O'quvchilar bilim ko'nimalarini nazorat qilish va baholash usullari bilan tanishish.	2		2
7.	Geografiya ta'limi metodlari, mashg'ulot mazmuniga ko'ra o'qitish metodlarini tanlashni o'rganish.	2		2
8.	Dars tiplari, dars ishlanmasini tuzishni o'rganish.	2		2
9.	Dars tahliliga qo'yiladigan talablar.	2		2
10.	Muammoli ta'lim metodi bilan amaliy tanishish.	2		2
Jami		22	8	14



NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Geografiyani o'qitishda talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo'llari.

Geografiyani o'qitishda talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo'llarini tahlil qilish.

2-mavzu. Innovatsion texnologiyalarning ilmiy nazariy asoslari.

Geografiya darslarida innovatsion texnologiyalarning ilmiy nazariy asoslari.

3-mavzu: Pedagogik jarayonning xarakteri, borishi va mazmunini o'zgartirishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar.

Geografiya fanini o'qitishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarning xarakteri, borishi va mazmunini tahlil qilish.

4-mavzu: Geografiya darslarida va darsdan tashqari ishlarda zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish yo'lari.

Geografiya darslarida va darsdan tashqari ishlarda zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish yo'lari o'rganish.

AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI

1-Amaliy mashg'ulot: Geografiyani o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo'llari. (2 soat)

Geografiyani o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo'llari tahlil qilish.

2-Amaliy mashg'ulot: Innovatsion texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari. (2 soat).

Innovatsion texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilish.

3-Amaliy mashg'ulot: O'quvchilar bilim ko'nimalarini nazorat qilish va baholash usullari bilan tanishish. (2 soat).

O'quvchilar bilim ko'nimalarini nazorat qilish va baholash usullari bilan tanishish.



4-Amaliy mashg'ulot: Geografiya ta'limi metodlari, mashg'ulot mazmuniga ko'ra o'qitish metodlarini tanlashni o'rganish. (2 soat).

Geografiya ta'limi metodlari, mashg'ulot mazmuniga ko'ra o'qitish metodlarini tanlashning o'rni va rolini tahlil qilish va imkoniyatlaridan keng foydalanish.

5-Amaliy mashg'ulot: Dars tiplari, dars ishlanmasini tuzishni o'rganish. (2 soat).

Dars tiplari, dars ishlanmasini tuzishni o'rganish va dars samaradorligini oshirish usullarini tahlil qilish.

6-Amaliy mashg'ulot: Dars tahliliga qo'yiladigan talablar. (2 soat).

Dars tahliliga qo'yiladigan talablar bilan tanishish va tahlil qilish.

7-Amaliy mashg'ulot: Muammoli ta'lim metodi bilan amaliy tanishish. (2 soat).

Geografiyani o'qitish jarayonida muammoli ta'lim metodi bilan amaliy tanishish va darslarda foydalanish yo'llarini tahlil qilish

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).



II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

1. **“Aqliy hujum” metodi** - biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va noston-dart fikrlashga o'rgatadi.


“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda –yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.
3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda-mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
 2. Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.
 3. Har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.
- Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, g'oya va mulohaza) bildirishlarini so'raladi;
2. Ta'lim oluvchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildi-rishadi;
3. Ta'lim oluvchilarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;
4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
- ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.

“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta'lim beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
- ta'lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.


2. **“Kichik guruhlarda ishlash” metodi** - ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan dars-dagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biri-dan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'la-di. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ish-lash” metodining tuzilmasi keltirilgan.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagi-lardan iborat:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'nal-tirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.



“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta'lim oluvchilar jalb etiladi;
- o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:


- ba'zi kichik guruhlarda kuchsiz ta'lim oluvchilar bo'lganligi sababli kuchli ta'lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta'lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;
- guruhlararo o'zaro salbiy raqobatlar paydo bo'lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin.

3. “Davra suhbat” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

“Davra suhbat” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shakli-da joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi”ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylash-tirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi,

“Javob varaqasi”ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.




Belgilar:

1-ta'lim oluvchilar

Davra stolining tuzilmasi

Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluv-chiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar vara-qasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluv-chiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhbat" metodining tuzilmasi keltirilgan:



"Davra suhbat" metodining tuzilmasi

"Davra suhbat" metodining *bosqichlari* quyidagilardan iborat:

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan "Javoblar varaqalari"ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. Ta'lim oluvchi konvertga va "Javoblar varaqalari"ga o'z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va "Javoblar varaqasi"ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.



6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqalari"dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi "Javoblar varaqalari"ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'ektiv baholashi mumkin.

"Davra suhbat" metodining afzalliklari:

- o'tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta'lim oluvchi o'zining baholanishi mas'uliyatini his etadi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

"Davra suhbat" metodining kamchiliklari:

- ko'p vaqt talab etiladi;
- ta'lim beruvchining o'zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.


4. "Rolli o'yin" metodi - ta'lim oluvchilar tomonidan hayotiy vazi-yatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o'yinlarning ishbop o'yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga "Rolli o'yin" metodida ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, "Ishbop o'yin" metodida rol ijro etuvchilar ma'lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o'zlari hal etadilar.

Rolli o'yinda ham ishbop o'yin kabi muammoni yechish bo'yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo'lga qo'yilgan. Rolli o'yinlar ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakl-lantiradi.

"Rolli o'yin" metodida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Chunki rollarni o'ynashda har bir ta'lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o'yinlar o'quv

jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida "Rolli o'yin" metodi-ning tuzilmasi keltirilgan.



Rolli o'yin" metodining tuzilmasi

"Rolli o'yin" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha o'yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o'yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O'yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O'yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta'lim oluvchilar o'z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta'lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O'yin yakunida ta'lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo'lgan ta'lim oluvchilar o'z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o'yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo'llash uchun ssenariy ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba'zi hollarda ta'lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo'yicha o'tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba'zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta'lim oluvchilar ushbu rolli o'yin ko'rinishi-dan so'ng o'z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

"Rolli o'yin" metodining afzallik tomonlari:

- o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllanti-radi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishni o'rgatadi;

- ta'lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

“Rolli o‘yin” metodining kamchilik tomonlari:

- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta'lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta'lim oluvchilarning o‘yinga tayyorgarligi turlicha bo‘lishi mum-kin;
- barcha ta'lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.


5. “Bahs-munozara” metodi - biror mavzu bo‘yicha ta'lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodi-dir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilar-ning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayot-ganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o‘tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o‘ng qo‘l” qoidasiga (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘z-lashga) rioya qilish;
- fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o‘zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o‘tkazish tuzilmasi berilgan.



“Bahs-munozara” metodining tuzilmasi



“Bahs-munozara” metodining *bosqichlari* quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir sa-vollar ishlab chiqadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammo bo'yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta'lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya'ni turli g'oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta'lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

“Bahs-munozara” metodining afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- ta'lim oluvchilar o'z fikrining to'g'riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

“Bahs-munozara” metodining kamchiliklari:


- ta'lim beruvchidan yuksak boshqarish mahoratini talab etadi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

6. “Muammoli vaziyat” metodi - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkab-ligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zla-riga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammo-ning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan (rasmga qarang).

“Muammoli vaziyat” metodining *bosqichlari* quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.



“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o’rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so’ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to’g’risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so’ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo’llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo’yicha taqdimot qiladilar va o’z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so’ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo’llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

- ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllan-tiradi;
- ta’lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarni topish-ni o’rganadilar;

- ta'lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yax-shi imkoniyat yaratiladi;

- ta'lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rgana-dilar.


“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:

- ta'lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo'yilgan muammo ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;
- ko'p vaqt talab etiladi.

7. **“Loyiha” metodi** - bu ta'lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta'lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruh bo'lishi mumkin, lekin har bir loyiha o'quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta'lim oluvchining vazifa-si belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta'lim oluvchilar nuqtai-nazari-dan topshiriq murakkab bo'lishi va u ta'lim oluvchilardan mavjud bilim-larini boshqa vaziyatlarda qo'llay olish-ni talab qiladigan topshiriq bo'li-shi kerak.

Loyiha o'rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishi, ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tash-killashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo'lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan:



“Loyiha” metodining bosqichlari



“Loyiha” metodining *bosqichlari* quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi loyiha ishi bo'yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, chizmalar, tarqatma material-lar asosida topshiriqqa oid ma'lumotlar yig'adilar.

2. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta'lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarni rejalash-tirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta'lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo'yicha qaror qabul qiladilar. Ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo'yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.

4. Ta'lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ish-lashlari mumkin.

5. Ta'lim oluvchilar ish natijalarini o'zlari tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirish-ga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini “Baholash varaqasi” da qayd etiladi. Ta'lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og'zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko'rinishidagi yozma hisobot.

6. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar ish jarayonini va natija-larni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O'quv amaliyoti mashg'ulotlarida erishilgan ko'rsatkichlarni me'yoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda me'yoriy ko'rsatkichlarga erisha olinmagan bo'lsa, uning sabablari aniqlanadi.

Ta'lim beruvchi “Loyiha” metodini qo'llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta'minlanishi lozim.



III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu: Geografiyani o'qitishda talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo'llari

Reja:

1. Geografiya ta'limi mazmunining tarkibiy qismlari.
2. Geografiya darslarida talabalarni to'laqonli o'quv – bilish jarayonining sub'ektiga aylantirish yo'llari.
3. Talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish bosqichlari.
4. Talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish shakllari.

Tayanch iboralar: Talabalarning bilish faoliyati, sub'ekt-sub'ekt munosabatlar, yalpi, individual va kichik guruhlarda o'qitish.

Geografiya yunoncha “geo” - yer, “grafo” – yozaman degan manoni bildiradi. Geografiya deb - o'zaro chambarchas bog'langan, yerning geografik qobig'ining tabiiy va ishlab chiqarish komplekslarini va ularning tarkibiy qismlarini o'rganadigan tabiiy (tabiiy geografiya) va ijtimoiy (iqtisodiy geografiya), hamda maxsus geografik fanlar tizimiga aytiladi.

geografiya ta'limining asosiy masqsad va vazifalari o'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan «maktab geografiyasini qayta qurishning ilmiy-uslubiy kontseptsiyasi»da quyidagicha belgilab berilgan:

- dunyoni yaxlit idrok etishni, geografik qamrovda mushohada yuritishni, bir so'z bilan aytganda, geografik madaniyatni tarbiyalash;
- tevarak-atrofni idrok qilishning muhim vositasi va uslubi bo'lgan xaritadan mohirona foydalana bilishni o'rgatish;
- har qanday shaxs, tabiat va jamiyat bilan munosabatning eng oqil me'yorlariga amal qilishni, buni muhim sharti esa, ularga kompleks yondashish zarurligini anglatmoq;
- har bir fuqoroning o'zi yashab turgan ijtimoiy muhitda samarali faoliyat ko'rsatishiga zarur bo'lgan bilim va malaka berish bilan ruyobga chiqishi va rivojlanishini ta'minlash.

Geografiya ta'limining mazmuni. Geografiya ta'limi umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonning ajralmas va uzviy bog'langan tarkibiy qismi sifatida mazkur ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan umumiy maqsadlarga muvofiq barkamol talaba shaxsini tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuningdek, geografiya ta'limi talabalarda yer to'g'risidagi ilmiy dunyoqarashlarni shakllantiradi, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni tarkib toptiradi, dunyo davlatlari va turli regionlarda jamiyat va tabiatning o'zaro bog'liqligi, geografik ob'ekt, jarayon va



hodisalar haqidagi bilim va tushunchalar bilan qurollantiradi, umuminsoniy madaniyatni tarkibiy qismi bo'lgan geografik madaniyatni tarbiyalaydi.

Talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish yo'llari:

1. bilimlarni o'zlashtirish jarayonida tashkil etish;
2. Mustaqil ish asosda tashkil etish;
3. Ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida tashkil etish;
4. Ahloqiy sifatlarni shakllantirish maqsadida tashkil etish;

Ta'lim jarayonida talaba o'qituvchining bevosita rahbarligida, ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari yordamida geografik qobiqning qonuniyatlari, hodisa va voqealarning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi va bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, talabalar uchun o'quv jarayoni bilish jarayoni, uning faoliyati esa bilish faoliyatidir.

O'qituvchi ta'lim jarayonida talabalarning bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, baholaydi va o'kitishdan ko'zda tutilgan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi.

O'qituvchi uchun ta'lim jarayoni talabalarning faoliyati bilan uzviy bog'langan va mazkur jarayonni tahlil qiladigan, umumlashtirib, tegishli hollarda o'zgartirishlar kirtadigan ish jarayoni, kasbiy pedagogik faoliyati sanaladi. Darsda talabalarning bilish faoliyati va o'qituvchining pedagogik faoliyati bir-biriga uyg'un ravishda tashkil etilgandagina o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin.

Talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish dars strukturasi asosini tashkil etadi. Shu sababli bu masalani chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq.

Polshalik didaktik olim V. Okonning *vvedenie v obshchuyu didaktiku*¹ kitobida talabalarning bilish faoliyatini tashkil etishning quyidagi yo'llari ko'rsatilgan:

1. Bilimlarni o'zlashtirish jarayonida talabalarning bilish faoliyati quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

- O'quv materialini bilan dastlabki tanishish;
- O'quv materiallarini o'rganish;
- O'zlashtirilgan bilimlarni avval o'zlashtirilgan bilimlar bilan taqqoslash;
- Bilimlarni tizimga solish va mustahkamlash;
- O'zlashtirilgan bilimlarni yangi holatlarda qo'llash.

2. Talabalarning bilish faoliyatini mustaqil ish asosda tashkil etish:

- Muammoli vaziyatlarni keltirib chiqarish;
- O'quv topshiriqlarining maqsadini aniqlash;
- Mustaqil izlanish orqali savollarga javoblar topish;

¹ V. Okon. *Vvedenie v obshchuyu didaktiku*. M., Vysshaya shkola. 1990, 382s



- Nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar asosida javoblarning to'g'riligini tekshirib ko'rish;

- Bilimlarni tizimga solish va mustahkamlash;
- Bilim, ko'nikma va malakalarni yangi vaziyatlarda qo'llash.

3. Talabalarning bilish faoliyatini ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida tashkil etish:

- O'quv faoliyatini amalga oshirish maqsadi, borishini aniqlash;
- O'quv faoliyatning modelini tuzish;
- Faoliyatni bajarish namunasini ko'rsatish;
- Talabalar tomonidan ishni bajarish;
- Faoliyatni takrorlash va xatosiz bajarishni o'rganish.

4. Talabalarning bilish faoliyatini ahloqiy sifatlarni shakllantirish maqsadida tashkil etish:

- O'qituvchining ko'rsatmasi yoki tavsiyasiga binoan, tavsiya etilgan adabiyotlarni topish;

- Qo'shimcha o'quv adabiyotlar bilan tanishish;
- O'rganilgan axborotlarni tahlil qilish va baholash;
- Adabiyot muallifining jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy sohasida yoki fan rivojiga qo'shgan hissasini aniqlash va baho berish;

- Talabalarning o'z xulqi va ahloqiy sifatlarini rivojlantirish yuzasidan umumiy xulosasi.

Ta'lim jarayonini tarbiya bilan, bilim, ko'nikma va malakalarni bir-biri bilan ajratilgan holda shakllantirishga mo'ljallangan o'quv faoliyatini tashkil etish mumkin emas.

Talabalarning bilish faoliyatini tashkil etganda, ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit, bir tizim holatida, bilim, ko'nikma va malakalarni bir - biri bilan uzviy ravishda shakllantirish lozimligini qayd etish zarur.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni hal etish va an'anaviy ta'lim tizimidagi kamchiliklarga barham berish, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun talabalarning bilish faoliyatini yalpi o'qitish bilan bir qatorda, individual va kichik guruhlarda o'qitishni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Talabalarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etilganda talabalar o'quv materialini mustaqil o'zlashtiradilar, ularning aqliy rivojlanishi, qiziqishi, ehtiyoji, iqtidori, bilimlarni o'zlashtirish darajasi hisobga olingan holda tuzilgan o'quv topshiriqlarini mustaqil bajaradi va o'z bilish faoliyatining sub'ektiga aylanadi.



Pedagogik munosabatlar tipining o'ziga xos xususiyatlari

Pedagogik munosabatlar	O'qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
Sub'ekt – ob'ekt munosabatlarda	Yangi mavzu materiali eng oson o'zlashtiriladigan usulda, tayyor axborot shaklida bayon etiladi. Tegishli hollarda savol-javob o'tkazadi, bilimlarni mustahkamlab, baholashni amalga oshiradi.	passiv, faqat axborotlarni qabul qilishga, shu holatda eslab qolish, savollarga javob berish, ko'rsatmaga binoan ish ko'rish.
Sub'ekt-sub'ekt munosabatlarda	Dars foydalanilayotgan texnologiyalari talablari asosida tashkil etiladi. Yangi mavzu materiali talabalar tomonidan mustaqil o'rganishlari uchun o'quv topshiriqlari tavsiya etadi tegishli hollarda yordam uyushtiradi, savol-javob o'tkazadi, bilimlarni mustahkamlash, o'z -o'zini, o'zaro nazorat va o'qituvchi nazorati orqali baholashni amalga oshiradi.	Tavsiya etilgan o'quv topshiriqlari asosida o'z o'quv faoliyatini tashkil etadi, muammoli vaziyatlardan chiqishning eng muqobil variantini ishlab chiqadi, avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalaridan foydalanib, yangi bilimlarni o'zlashtiradi, o'z faoliyatini o'rtoqlarining faoliyati bilan taqqoslab, o'zini rivojlantirish rejasini tuzadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida sub'ekt-sub'ekt munosabatlarni vujudga keltirishda talabalarning bilish faoliyatini individual va kichik guruhlarda tashkil etish maqsadga muvofiq.

Talabalarning bilish faoliyatini individual tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

- O'quv topshirig'ining didaktik maqsadini aniqlash;
- Mustaqil izlanish maqsadini va maqsadni amalga oshirish yo'llarini aniqlash;
- O'z mustaqil ishini tashkil etish;
- O'quv materialini mustaqil o'rganish;
- O'rganilayotgan ob'ektlarni taqqoslash, o'xshashlik va farqlarni, o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash;
- Olingan natijani loyihalash, uning maqsadga muvofiqligini tekshirish;



- Natijani tahlil qilish, tegishli hollarda unga o'zgartirishlar kiritish.

O'quv topshiriqlarini individual bajarish jarayonida talabalarning aqliy faoliyati jalb etiladi, o'z bilimi, kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonch ortadi va har bir shaxs o'z imkoniyati darajasida rivojlanadi. Shu tarzda tashkil etilgan bilish faoliyatida vaqtdan unumli foydalaniladi, samaradorlik ortadi. Modulli ta'lim texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasining metodlaridan foydalanib tashkil etilgan darslarda talabalarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etiladi.

Geografiyaning o'qitishda talabalarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etish asosan darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ham foydalaniladi. Masalan, talabalarning uy vazifasini bajarishida ularga tafovutlab yondashish imkoniyatlari mavjud. Talabalarga muayyan mavzular bo'yicha kuzatish va tajribalar o'tkazish, ma'ruza va referatlar tayyorlash, turli mavzularda o'tkaziladigan tanlovlar uchun materiallar tayyorlash shular jumlasidandir.

Ta'lim – tarbiya jarayonida darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni e'tiborga olingan holda darsda talabalarning kichik guruhlarda mustaqil ishlashi, debatlar tashkil etish, aqliy hujum, didaktik o'yinlar, taqdimot, o'z-o'zini baholash, tashrif kabilardan foydalanish, masala va mashqlar yechishni yo'lga qo'yish o'qituvchining diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

Talabalarning bilish faoliyati kichik guruhlarda tashkil etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

➤ Darsda vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni hal etish yo'llarini belgilash;

➤ O'quv topshiriqlarining didaktik maqsadi, bajariladigan topshiriqlar bilan tanishish;

➤ Kichik guruh a'zolari bilan hamkorlikda maqsadni amalga oshirish yo'llarini loyihalash, mustaqil ishlarni tashkil etish;

➤ O'rganilayotgan ob'ektning avval o'rganilgan ob'ektlar bilan taqqoslash;

➤ Natijalarni loyihalash va uning maqsadga muvofiqligini tekshirish;

- Natijani tahlil qilish, tegishli hollarda unga o'zgartirishlar kiritish.

• Talabalarning bilish faoliyati kichik guruhlarda tashkil etilganda guruhdagi har bir talaba iqtidori, qiziqishi, bilim saviyasi, bilimlarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, talabalar o'rtasida hamkorlik, o'quv muloqoti, bahsi, munozara, o'zaro yordamni amalga oshirish ko'zda tutiladi.

Geografiya o'qitishda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining barcha metodlaridan, modulli ta'lim texnologiyasining talabalarning kichik guruhlarda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturlarida foydalanish shular jumlasiga kiradi.

Geografiya darslarida talabalarning bilish faoliyati yalpi o'qitishni individual va kichik guruhlarda ishlash shakllari bilan uyg'unlashtirilganda juda yuqori samara beradi. Hamkorlikda o'qitishning kichik guruhlarda o'qitish metodida yalpi o'qitish



kichik guruhlar bilan, “arra ” metodida esa, talabalarni avval individual tarzda, so'ngra kichik guruhlarda o'qitish uyg'unlashtirildi.

Geografiya darslarida o'rganilayotgan mavzuning didaktik maqsadi, vazifalari, mazmunidan kelib chiqqan holda talabalarning bilish faoliyati individual, kichik guruhlarda va yalpi holda tashkil etish shakllaridan o'z o'rnida va samarali foydalanish tavsiya etiladi.

Talabalarning bilish faoliyatini samarali tashkil etish va oqilona boshqarish uchun geografiya o'qituvchisi quyidagi amallarni bajarishi lozim:

O'rganilayotgan mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlaridan kelib chiqqan holda, talabalarning bilish faoliyatini qaysi shaklda tashkil etish;

Talabalarning bilish faoliyatini loyihalash;

O'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadni amalga oshirish yo'llarini belgilash;

Dars davomida talabalarning bilish faoliyatidan olingan natijani tahlil qilish va uning maqsadga muvofiqligini tekshirib ko'rish;

Zarur hollarda talabalarning bilish faoliyati loyihasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish.

Talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish shakllari

Bilish faoliyatini tashkil etish shakllari	O'qituvchi faoliyati	Talabalar faoliyati
Yalpi ommaviy o'qitish	Yangi mavzuni ko'rgazmalilik asosida tushuntiradi, tayyor axborot beriladi, sub'ekt-ob'ekt munosabati vujudga keladi	Yangi mavzuni tinglaydi, eslab qoladi, savollarga javob beradi. Faoliyati sust bo'ladi.
Individual o'qitish	Har bir talabaga tegishli topshiriqlar tayyorlaydi va tavsiya etadi. Yangi mavzuni talabalar bilan hamkorlikda qayta ishlaydi. Sub'ekt-sub'ekt munosabatlari vujudga keladi.	O'zlariga tegishli o'quv topshiriqlarni bajaradi, o'z bilimi, kuchi va iqtidoriga bo'lgan ishonchi ortadi, bilish quvonchini his etadi
Kichik guruhlarda o'qitish	Har bir kichik guruhga tegishli o'quv topshiriqlari tayyorlaydi va tavsiya etadi. Yangi mavzuni talabalar bilan hamkorlikda qayta ishlaydi. Sub'ekt-sub'ekt munosabatlari vujudga keladi.	Belgilangan o'quv topshiriqlarini bajaradi, o'zaro hamkorlik vujudga keladi, o'zaro nazorat amalga oshadi, bilish quvonchini his etadi

Shunday qilib, talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, mazkur faoliyatni maqsadga muvofiq tashkil etish, uni loyihalash, maqsadni amalga



oshirish yo'llarini belgilash, olingan natijani tahlil qilish va baholash bosqichlaridan iborat bo'ladi.

Hozirgi zamon ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hukmronligini saqlab kelayotgan an'anaviy ta'lim, talabalarni yalpi o'qitishni va talabalarning bilish faoliyati passiv tinglovchi sifatida tashkil etishni nazarda tutadi. O'qitish ishlarini tashkil etishda o'rta saviyali talaba mo'ljalga olinadi, talabalarning mustaqilligi e'tibordan chetda qoladi, o'quv faoliyati o'qituvchi tomonidan boshqariladi.

Shu sababli talabalarni o'z o'quv faoliyatining to'laqonli sub'ektiga aylantirish, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, o'qitish samaradorligini orttirish maqsadida geografiyani o'qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarurati tug'ildi.

Nazorat qilish uchun savollar

1. Geografiya darslarida talabalarni to'laqonli o'quv – bilish jarayonining sub'ektiga aylantirish yo'llari aniqlang.
2. Talabalarni o'z o'quv faoliyatining sub'ektiga aylantirish bosqichlarini aniqlang.
3. Maqsadga muvofiqlik, loyihalash, maqsadni amalga oshirish natijani tahlil qilish va baholash bosqichlariga tavsif bering.
4. Sub'ekt - sub'ekt munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
5. Talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish shakllarini taqqoslang.

2-mavzu: Innovatsion texnologiyalarning ilmiy nazariy asoslari

REJA:

1. Pedagogik texnologiyalarning mazmuni, ta'riflari, tasnifi
2. Pedagogik texnologiyalarning ko'rinishlari va darajalari.
3. Pedagogik texnologiyaning mezonlari.

TAYaNCh IBORALAR: Texnologiya, pedagogik texnologiya, pedagogik texnologiya tasnifi, pedagogik texnologiya darajalari, pedagogik texnologiya mezonlari.

Pedagogik texnologiya tushunchasi keng ko'lamli, serqirra tushuncha bo'lib, u ta'lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan va hozirda pedagogika, psixologiya fanlarida o'z o'rniga ega. Ta'lim-tarbiya faoliyatining mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakli va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkonini beruvchi yaxlit tizimga, ya'ni texnologiyaga aylanib bormoqda. Shu asosda ta'lim-tarbiya sohasida so'nggi davrda pedagogik texnologiya amal qila boshladi.



Ishlab chiqarishdagi texnologiyalarda turli materiallarga ishlov berish tegishli kasb ustalari tomonidan amalga oshiriladi. Pedagogik texnologiyada esa ishlov beriladigan material (o'quvchi) ta'lim oluvchining aqliy, ruhiy, ahloqiy sifatlari bo'lib, ularga o'qituvchi, tarbiyachi tomonidan ma'lum maqsadlarga erishi yo'lida har turli ta'sirlar o'tkaziladi.

Hozirgi zamon ilm-fan taraqqiyoti, axborot muhitining kengligi, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining rivojlanish sur'ati – ta'lim tizimiga davr talabi nuqtai nazaridan yangicha qarashni, uni jamiyat talablari va shaxs ehtiyojini hisobga olgan holda jahon standartlari darajasiga ko'tarish, ta'lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishni taqazo etmoqda.

Respublika uzluksiz ta'lim tizimi uchun dastlabki pog'ona bo'lgan umumiy o'rta ta'lim tizimining tabiiy geografiya ta'limida ushbu muammo dolzarbligi bilan alohida ajralib turadi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida ta'lim tarbiya jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishdan maqsad – ijtimoiy-iqtisodiy sharoit talablariga moslasha oladigan, har sohadan xabardor, ma'naviy barkamol shaxsni o'qitish, tarbiyalash jarayonini tezlashtirish hamda ularning tayyorgarlik sifatini nazorat qilishning ishonchli, bir maromga keltirilgan tizimini ishlab chiqishdan iborat. Uning mahiyati esa, ta'lim-tarbiya jarayonini jadallashtirish, o'kuvchilarning aqliy-ijodiy imkoniyatlarini ruyobga chiqarish, natijalarini ob'ektiv baholay olish, ko'zlangan natijalarga erishishni kafolatlashga qaratilgan pedagogik jarayonni anglatadi.

Texnologiya tushunchasi 60-yillarda Amerikava G'arbiy ta'limni isloh qilish bilan bog'liq ravishda kirib keldi. B.Blum, J. Koroll, P.Ya.Galperin, V.I.Davidov, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmikova, L.I.Zankov texnologiyalari mashhur.

Ta'lim texnologiyasi, pedagogik texnologiyalar nazariyasining umumiy asoslari mohiyatini to'laqonli anglash uchun mazkur iboraning lug'oviy ma'nosini tushunib olish taqazo etiladi. «Texnologiya» yunoncha so'z bo'lib, «techne» - mahorat, san'at, «logos» - tushuncha, ta'limot ma'nosini anglatadi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo'lib, quyidagi rivojlanish bosqichlaridan o'tib kelmoqda:

- Dastlab bu tushuncha 1940-1950-yillar o'rtalarigacha «ta'limda texnologiya» deb qo'llanilib, o'quv jarayonida audiovizual texnika vositalarida foydalanishni ifoda qilgan.

- Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrning o'rtalarida AQSh da qo'llanila boshlagan. Bunda «texnologiya texnologiya» va «ta'limda texnologiyasi» ifodalari faqat texnika vositalari yordamida o'qitishga nisbatan qo'llanilgan.

- 1950 yillar o'rtasida 1960- yillargacha «ta'limda texnologiyasi» ifodasi qo'llanilib, bunda programmalashtirilgan ta'limni nazarda tutilgan.

- 1979 yilda AQSh Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiyasi tomonidan kompleks, integrativ jarayon deb ta'riflangan.

- 1980 yillarni boshidan pedagogik texnologiya deb ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga aytilgan.

«Ta'lim texnologiyasi» iborasining ma'nosi (inglizcha «an educational technology») ta'lim jarayonini yuksak mahorat, san 'at darajasida tashkil etish to'g'risida ma'lumot beruvchi fan, ta'limot ma'nosini anglatadi. Ayni vaqtda ta'lim texnologiyasi tushunchasining ta'rifi hamda mohiyati borasida yagona g'oya, fikr mavjud bo'lmay, balki, bu nazariya mohiyatini yoritilishiga nisbatan turli yondashuvlar, ya'ni, V.P.Bespalko, I.P.Volkov, V.M.Shepel, V.M.Klarin, G.K.Selevko, YuNESKO, V.M.Maxanov va boshqa pedagog-didaktikachilar tomonidan berilgan ta'riflar mavjud. Pedagogik texnologiya atamasiga shu muammo bo'yicha izlangan har bir olim o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta'rif bergan. Hali bu tushunchaga to'liq va yagona ta'rif qabul qilinmagan. Ushbu ta'riflarning ichida eng maqsadga muvofiq'i YuNESKO tomonidan berilgan ta'rif sanaladi.

Pedagogik texnologiya – o'qitish shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

Bu yerda inson salohiyati deyilganda o'qituvchining pedagogik va o'quvchilarning bilish faoliyati, texnik resurslar deganda o'qitish metodlari va vositalari nazarda tutilmoqda. Pedagogik texnologiyaga berilgan ta'riflar quyidagicha: Texnologiya –biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan usullar, yo'llar yig'indisi (Izohli lug'at)

Pedagogik texnologiya – o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lgan holda pedagogik muvoffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir (V.P.Bespalko).

Pedagogik texnologiya – pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan barcha shaxsiy, instrumentli va metodologik vositalarning tizimli yig'indisini va amal qilish tartibini bildiradi (M.V.Klarin).

Pedagogik texnologiya - bu o'qitishga o'ziga xos yangicha (innovatsion) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy muhandislik tafakkurining ifodalanishi. Texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi (B.L.Farberman).

Pedagogik texnologiya – turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta'rif-lari mazmunini o'zida mujassam etuvchi umumlashtirishdan iborat (G.K.Selevko).

Pedagogik texnologiyaning mohiyati didaktik maqsad talab etilgan o'zlashtirish darajasiga erishishdan iborat bo'lib, uni tadbiiq etishni hisobga olgan holda ta'lim jarayonini ilgaridan loyihalashtirishda namoyon bo'ladi (U.Nishonaliev).



Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir (N. Saydahmedov)

Pedagogik texnologiya- bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, shaxsni oldindan belgilangan ijtimoiy safatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tizim sifatida qarab, uni tashkil etuvchilar, ya'ni o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko'rsatgan ta'sirini va ta'lim natijasini nazorat jarayonida baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbirdir (B.Ziyomammedov).

Pedagogik texnologiya- bu o'qitishning o'ziga xos yangicha (innovatsion) yondashuvidir. U pedagogikadagi ijtimoiy muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi (B.L.Farberman) va h.k.

Pedagogik texnologiyalar quyidagi belgilariga ko'ra tasnif qilinadi:

- Qullanish darajasiga ko'ra
- Falsafiy asosi bo'yicha;
- Asosiy rivojlantiruvchi omili bo'yicha;
- O'zlashtirish konsepsiyasi bo'yicha;
- Shaxsiy belgi sifatlariga ko'ra o'ynalganligi bo'yicha;
- Mazmuni xususiyatlari bo'yicha;
- Boshqaruv turi bo'yicha;
- Ko'p qo'llaniladigan metodlari bo'yicha;
- Bolaga yondashuv bo'yicha;
- Ta'lim oluvchilar toifalari bo'yicha

Pedagogik texnologiyalarni umumpedagogik, xususiy (o'quv fanlari) va kichik texnologiyalardan iborat uchta darajaga ajratiladi.

➤ **Umumpedagogik texnologiya** – turli darajadagi tizimlarni ifodalaydi. U ayrim hududdagi, tumandagi ta'lim muassasidagi yoki ta'limning ayrim pog'onasidagi barcha ta'lim-tarbiya jarayoniga tegishli bo'ladi.

➤ **Xususiya texnologiya** – ta'lim-tarbiya mazmunining ayrim yo'nalishlarini amalga oshirish usullari va vositalari majmuasini o'z ichiga oluvchi pedagogik tizimlarni qamrab oladi.

➤ **Kichik texnologiyalar** - o'quv-tarbiya jarayonining ayrim qismlarini o'z ichiga oladi. U ayrim didaktik va tarbiyaviy maqsadlarni hal qilish bilan shug'ullanadi.

Pedagogik texnologiyalarning asosiy mezonlarini quyidagicha belgilash mumkin:



- Ma'lum ilmiy asosga, konsepsiyaga tayanish.
- Tizimli, o'quv-tarbiya jarayoni va uning qismlarini o'zaro mantiqiy bog'liqligi.
- Samaradorligi, ta'lim standartlariga erishishning kafolatlashi, sarflash talab qilinadigan vaqt, kuch va vositalarning ma'yor darajasida ekanligi.
- Boshqalar tomonidan qayta amalga oshirish mumkinligi.

Nazorat uchun savollar

1. Pedagogik texnologiyaga o'zlashtirgan bilimlaringiz asosida o'z nuqtai nazaringizdan ta'rif bering.
2. Pedagogik texnologiyalar borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
3. Pedagogik texnologiyalarning qanday ko'rinishlari mavjud?
4. Pedagogik texnologiyalarning darajalarini izohlang.
5. Pedagogik texnologiya tasnif asosida misol sifatida hozirgi an'anaviy maktab ta'lini tasniflang.
6. Pedagogik texnologiyaning asosiy mezonlariga nimalar kiradi?

3-mavzu: PEDAGOGIK JARAYONNING XARAKTERI, BORISHI VA MAZMUNINI O'ZGARTIRISHDA QO'LLANILADIGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

REJA:

1. Pedagogik texnologiyalarning asosiy yo'nalishlari.
2. Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish.
3. Talimni differentsiyalashtirish va individuallashtirish.

TAYANCh IBORALAR: Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, hamkorlik, geografik ta'limni demokratlashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amaldagi bosqichi ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan pedagogik kadrlar bilan ta'minlash, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhitni vujudga keltirish, o'quv tarbiya jarayonini sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash kabi qator vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish har bir ta'lim muassasasining shu jumladan, pedagogika oliy o'quv yurtlarining bevosita vazifasi sanaladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash uchun Geografiya o'kituvchilari maxsus metodik bilim va ko'nikmalarni egallashlari, pedagogik amaliyotda zarur bo'ladigan metodik tayyorgarlikka ega bo'lishlari lozim.



Pedagogik texnologiya atamasiga shu muammo bo'yicha izlangan har bir olim o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta'rif bergan. Hali bu tushunchaga to'liq va yagona ta'rif qabul qilinmagan. Ushbu ta'riflarning ichida eng maqsadga muvofiq'i YuNESKO tomonidan berilgan ta'rif sanaladi.

Pedagogik texnologiya – o'qitish shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

Bu yerda inson salohiyati deyilganda o'qituvchining pedagogik va o'quvchilarning bilish faoliyati, texnik resurslar deganda o'qitish metodlari va vositalari nazarda tutilmoqda.

Geografiyani o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarni guruhlashtirishda dastlab quyidagilarga asosiy e'tiborimizni qaratishimiz lozim:

1.O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari.

2.O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarning turlari.

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va o'qitish samaradorligini oshirish masalasi Geografiyani o'qitish metodikasi fanining asosiy muammolaridan biri sanaladi.

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish deganda, o'quvchilarda yuqori darajadagi motiv, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga bo'lgan ongli ehtiyoj, natijaning yuqoriligi va ijtimoiy normalarga mos hulqning paydo bo'lishi tushuniladi.

Mazkur tipdagi faollik har doim ham vujudga kelavermaydi, faqat o'qituvchining maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir ko'rsatishi va qulay pedagogik-psixologik muhitni tashkil etish mahorati tufayligina vujudga keladi.

Geografiyani o'qitishda maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish va qulay ijtimoiy-psixologik muhitni vujudga keltirishi o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan pedagogik texnologiyalarga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birgalikda, ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, ijodiy faoliyatga yo'llovchi, kommunikativ, mantiqiy fikrlash, aqliy faoliyat usullarini shakllantirish, o'z faoliyatini tahlil qilish, kasbga yo'llash, mo'ljalni to'g'ri olishga o'rgatish, hamkorlikni vujudga keltirish kabi funktsiyalarni bajaradi.

Biroq, pedagogik texnologiyalarning funktsiyalarini taqqoslaganda bu funktsiyalar bir xil darajada o'rin egallamasligi ma'lum bo'ldi.



PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING DIDAKTIK FUNKTSIYALARI

Pedagogik texnologiyalarning funksiyalari	Didaktik o'yinli	Muammoni ta'lim	Modulli ta'lim	Hamkorlikda o'qitish	Loyihalash
1. Ta'lim beruvchi	1	5	1	3	7
2. Rivojlantiruvchi	2	4	2	4	8
3. Tarbiyalovchi	3	6	3	5	9
4. Ijodiy faoliyatga yo'llovchi	8	3	6	6	1
5. Kommunikativ	4	9	4	7	4
6. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	6	2	7	8	3
7. Aqliy faoliyat usullarini shakllantirish	7	1	8	9	2
8. O'z faoliyatini tahlil va nazorat qilish	10	7	10	10	11
9. Kasbga yo'llash	11	10	11	11	6
10. Mo'ljalni to'g'ri olishga o'rgatish	5	8	9	2	5
11. Hamkorlikni vujudga keltirish	9	11	5	1	10

Geografiya o'qituvchisi darsda o'rganiladigan mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari va pedagogik texnologiyalarning didaktik funksiyalarini hisobga olgan holda qaysi texnologiyadan foydalanishini ilmiy-metodik asosda tanlagandagina ko'zlangan maqsadga va samaradorlikka erishadi.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yilgan buyurtmalarni bajarish uchun avvalo ta'lim jarayonini differentsiallashtirish va individuallashtirish, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuvni talab etadi.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish texnologiyasi o'zida falsafa, psixologiya va pedagogikaning inson-parvarlik g'oyalarini mujassamlashtiradi. Ushbu texnologiya diqqat mar-kazida o'z imkoniyatlarini maksimal darajada amaliyotga qo'llaydigan, ijodiy va ijtimoiy faol, turli hayotiy vaziyatlarni anglab tahlil qila-digan, mo'ljalni ongli ravishda mustaqil, to'g'ri oladigan shaxsni shakllantirish g'oyasi turadi.



Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish texnologiyasi orqali pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlikning vujudga kelishi, o'quvchilar shaxsini hurmat qilish va e'zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod qilish va o'z - o'zini rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratiladi. Mazkur jarayonda o'quvchi o'z o'quv faoliyatining sub'ekti sanaladi va o'qituvchi bilan yagona ta'lim jarayonining ikkita sub'ekti hamkorlikda o'quv-tarbiyaviy vazifalarni hal etadi.

Pedagogning o'quvchi shaxsiga bo'lgan insonparvarlashtirilgan munosabati bolalarni sevish, ularning taqdiri uchun qayg'urishi, bolalarga bo'lgan ishonchning yuqoriligi, o'zaro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishi, o'quvchilarni to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish va aksincha ijobiy rag'batlantirishning ustunligi tufayli ta'lim jarayonidan ko'zlangan maqsadga erishish, bolalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo'lish, ularni bartaraf etishning eng samarali yo'llarini qo'llashda namoyon bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini demokratizatsiyalash o'qituvchi o'quvchi-larning fuqarolik huquqlarini tenglashtirish, o'quvchilarga tanlash huquqining berilishi, o'z fikri va nuqtai nazarini erkin bayon etish, ular bu borada xatoga yo'l qo'yishi mumkinligi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va bolalar huquqlari Konvensiyasiga amal qilinishini taqozo etadi.

Demokratizatsiyalash ta'lim tizimidagi formalizm, byurokratizmni yo'qotib pedagogik hamkorlikni yuzaga keltiradi.

Hamkorlik – o'qituvchi va tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirish, ularni ma'naviy, axloqiy, intellektual jihatdan rivojlantirish, bu jarayonni bir-biriga uyg'unlashtirish, faoliyatning natijasi va borishini hamjihatlikda tahlil qilish imkonini beradi.

Demokratlashtirilgan jarayonni insonparvarlashtirish o'quv-tarbiya-viy jarayonining maqsadini amalga oshirish, tahsil oluvchilarning o'quv-bilish va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, o'quv mehnatining xarakteri va mazmunini o'zgartiradi va shaxsning uyg'unlikda rivojlanishiga qulay psixologik muhit yaratadi.

Nazorat uchun savollar

1. Pedagogik texnologiyalarning an'anaviy ta'lim texnologiyasidan farqi nimada?
2. Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
3. Ta'lim-tarbiya jarayonini demokratlashtirish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
4. Geografiya ta'limida o'quvchi shaxsiga insonparvarlashtirilgan yondashuvning xususiyatlarini belgilang.



5. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirishda o'qituvchi e'tiborini nimalarga qaratishi zarur?
6. O'quvchilarga tafovutlab yondashishining o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
7. O'quvchilarga tindividual yondashishining o'ziga xos xususiyatlarini ayting.

4-mavzu: GEOGRAFIYA DARSLARIDA VA DARSDAN TASHQARI ISHLARDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH YO'LARI

REJA:

1. O'qitishning texnik vositalari haqida tushuncha
2. Geografiya darslarida zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish.
3. Darsdan tashqari ishlarda zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish.

TAYaNCh IBORALAR: *texnik vosita, ta'lim vositalari, elektron xarita, televideniya, statik proeksiya, elektron darslik, videofilm.*

Fan va texnikaning rivojlanishi bilan maktab geografiyasining oldiga qo'yiladigan talablar ham ortib boradi. Mazkur talablarni bajarish uchun o'qitish shakllari va metodlarini takomillashtirish lozim bo'ladi. Bu esa o'quvchilar bilish faoliyatini jadallashtiradi, ularni fikrlashga va ilmiy mushoxada qilishga undaydi hamda o'rganayotgan geografik voqea va xodisalar bilan hayot o'rtasidagi aloqalarni tushunishga yordam beradi. Yangi o'quv vositalarini qo'llash o'quvchilarni dunyoqarashini shakllantirishga, shaxs sifatida rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qitishning texnik vositalari o'qituvchi yordamida qo'yilgan maqsadga erishishga, o'tkazilayotgan mashg'ulotlarni samaradorligini keskin oshirishga imkon beradi.

Texnik vositalarni qo'llashni quyidagi afzalliklari mavjud:

- qiziqarliligi, o'quvchilar birinchidan texnika vositalarini o'ziga qiziqsa, ikkinchi tomondan uni ishlatishga va unda ko'rsatilgan ma'lumotlarga qiziqishadi;
- voqealarni tez rivojlanishi va aniq ko'rsatilishi o'quv materiallarini tez o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan, tabiiy geografik jarayonlarni sodir bo'lishi, tekislik va tog' relefining turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, tropik o'rmonlarning sharoiti, ishlab chiqarish jarayoni va h.k.
- texnik vositalar orqali murakkab o'quv materialini oson tushuntirish mumkin. Masalan, havo massalarini vujudga kelishi, imkoni va antitsiklonlarni shakllanishi, tornado, tsunami va boshqa tabiiy geografik jarayonlarni hosil bo'lishi va ularning oqibatlari;
- o'quvchilar qabul qilishi murakkab bo'lgan geografik obektlarni texnik vositalar orqali osongina bajarish mumkin. Masalan, temir yo'l paromi, dengizdagi neft qazib oladigan moslamalar va h.k.



O'qitishning texnik vositalarini qo'llashda quyidagi qoidalarga amal qilinishi lozim:

- texnik vositalarda ko'rsatiladigan geografik voqea va hodisalar dars mavzusiga mos bo'lishi lozim;

- texnik vositalarni qo'llash oldidan uning ishlash tamoili, mazkur darsda nima ko'rsatilishi haqida o'qituvchi axborot bermog'i lozim;

- o'qitishni texnik vositalari avvaldan ishga tayyorlab qo'yilishi lozim. Uni dars jarayonida sozlash o'quv soatini ancha qismini olib qo'yishi mumkin;

- texnik vositalar orqali ma'lum bir mavzuni o'rganishda uni alohida qismlarga bo'lish lozim;

- har bir qismda ko'zda tutilgan material tugallangandan so'ng o'qituvchi izoh berishi, namoish qilingan geografik voqea va hodisalarni o'quvchilar qanday qabul qilganini tekshirib ko'rishi mumkin. Ko'zda tutilgan materiallar namoyish qilib bo'lingandan so'ng o'qituvchi darsni yakunlashi lozim;

- namoish etilgan material aniq va ravshan ko'rinishi lozim.

Geografiya darslarida foydalaniladigan o'qitishning texnik vositalarini quyidagi guruhga bo'lishimiz mumkin:

- o'qitishni audiovizual vositalari;

- o'qitishda videotexnika vositalaridan foydalanish;

- o'qitishda axborot vositalaridan foydalanish.

O'qitishni audiovizual vositalariga o'quv kinosi, teleeshittirishlar, diafilmlar, diopozitivlar, transparantlar kiradi.

Video texnika vositalariga turli xil videomagnitafonlar kiradi.

O'qitishni axborot vositalariga kompiyuterlar, internet imkoniyatlari, masofaviy o'qitish vositalari kiradi.

O'qituvchi o'quv yilini boshida texnika vositalardan foydalanish rejasini tuzmog'i lozim.

Mazkur reja asosida texnika vositalari hafta boshida tayyorlab qo'yilmog'i zarur.

Ta'lim vositalari - o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi.

Ta'lim vositalari:

1. Ta'lim berishning texnik vositalari (TTV);

2. Yordamchi ta'lim vositalari (YoTV);

3. O'quv - uslubiy materiallar (O'UM).

Ta'limning texnik vositalari (TTV) - o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi; o'quvchi va talabalarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi. Bularga diaproyektor, flipchat, videofil'm, kompyuter, elektron doska va h.k.



Yordamchi ta'lim vositalari (YoTV) – grafiklar, chizmalar, diagramma, sxema, namunalar va h.k. boshq.

O'quv - uslubiy materiallar (O'UM) - o'quv materiallar, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular o'quvchi va talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradilar.

O'quvchi va talabalarni o'quv - bilish faoliyatlarini jadallashtirishga yordam beruvchi har turdagi *ta'lim vositalarini tanlash va ulardan foydalanish quyidagilarga bog'liq*: 1) maqsadni belgilash; 2) asosiy bilim manbaiga; 3) ta'lim usuliga; 4) o'quv materialining yangiligi va murakkabligiga; 5) o'quvchi va talabalarni o'quv imkoniyatlariga.

Kinofilmlardan geografiya darslarida foydalanish dars mavzusi, dars turi, boshqa holat va sharoitlarga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

Dars jarayonida kinofilmlardan to'la foydalanish mumkin, uning bo'limlaridan va qism yoki lavhalaridan foydalanish mumkin. Kinofilmni namoish qilishni darsning turli xil bosqichlarida amalga oshirish mumkin. Ayrim kinofilmlardan to'la, ayrimlaridan qisman foydalanish mumkin.

Kinofilmlar dars jarayonida foydalanishga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- maxsus o'quv maqsadlarida chiqarilgan filmlar;
- ilmiy- ommabop kinofilmlar;
- tabiat komponentlarining ayrim qismlariga bag'ishlangan filmlar

(tog'lar, o'rmonlar, daryolar, ko'llar, hayvonot dunyosi va h. k.)

- badiiy filmlar;
- videofilmlar.

Maxsus o'quvfilmlari aniq bir mavzuga bag'ishlangan bo'ladi. Masalan, tog'lar, Sahroi Kabir cho'li, Tundra, o'rmonlar va h.k.

Ilmiy-ommabop kinofilmlar asosan keng halq ommasiga mo'jallab chiqariladi. Dars jarayonida uning ayrim qismlaridan foydalanish mumkin.

Tabiat komponentlarini ayrim qismlariga bag'ishlangan kinofilmlardan ham dars jarayonida foydalanish mumkin. Masalan, hayvonlarni ayrim turlariga, okean mavjudotlariga, aholiga va uning turmush tarziga bag'ishlangan filmlar.

Badiiy filmlarni ham ayrim dars mavzusiga oid qismlaridan foydalanish mumkin. Bunday filmlar toifasiga sarguzasht filmlar ko'proq kiradi. Unda tasvirlangan tabiat manzaralari, o'simlik va hayvonot dunyosidan dars jarayonida foydalanish mumkin.

Turli xil videofilmlardan ham mavzuga mos joylaridan foydalanish mumkin.

Yuqorida aytilganidek kinofilmlardan darsning boshida, ya'ni o'tilgan darslarni takrorlashda, yangi mavzuni o'tishda, olingan bilimlarni mustahkamlashda foydalanish mumkin.

Takrorlash darslarida mavzu bo'yicha kinofilm yoki uning bir qismi namoyish qilinadi va o'quvchilardan unga izoh berish yoki uni tushuntirib berish talab qilinadi.



Yangi mavzuni o'rganishda mavzuga oid kinofilm to'la ko'rsatiladi. Bunda filmga o'qituvchi izoh beradi.

O'tilgan mavzuni mustahkamlashda ham kinofilmlardan foydalanish mumkin. Bunda kinofilm namoyish qilinadi va uning mazmuni o'quvchilardan so'raladi.

Ayrim xollarda kinofilmlar darsni kirish qismi sifatida ko'rsatiladi.

Filmni dars jarayonidagi o'rni darsning maqsadi, mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari bilan aniqlanadi. O'quv filmlaridan bilim olish manbai sifatida ham foydalanish mumkin. Undan mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha o'quv qo'llanma sifatida ham foydalansa bo'ladi. Masalan, berilgan savollarga javob topish, namoyish qilinayotgan materiallarni mavjud (bor) material bilan, darslik bilan, o'qituvchini ma'ruzasi, qator boshqa filmlarni mazmuni bilan solishtirish. Filmlar o'quvchilar bilimini tekshirishda va o'rganilgan mavzu mazmunini o'zlashtirish darajasini aniqlashda, o'tilgan materiallarni umumlashtirishda yoki ma'lum mavzuni umumiy tavsifini o'tishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari filmlar yordamida sinf sharoitida sayohatlar ham uyushtirish mumkin yoki bo'lmasa o'quvchilar bevosita ko'rolmaydigan jarayonlarni ko'rsatish mumkin. Masalan, "Qora metallurgiya", "Sintetik tolalar", "Tropik o'rmonlar", "Cho'llar", "Dashtlar".

Dars jarayonida filmlar bilan ishlash metodikasi quyidagi qismlardan iborat: a) o'quvchilarni ma'lum bir mavzu bo'yicha kinofilmni ko'rishga tayyorlash; b) o'quvchilarni filmni ko'rish jarayonidagi ishlarini tashkil qilish; v) ko'rilgan film mazmunini mustahkamlash; g) kinolashtirilgan darsni samaradorligini tekshirish.

O'quvchilarni dars oldidan aniq filmni ko'rishga tayyorlash film mazmunini faol tushunishga va uni to'la o'zlashtirishga imkon beradi. Filmni o'quvchilar o'qituvchi kuzatuvida ko'rishadi. Agar filmni ko'rish jarayonida nazorat bo'lmasa o'quvchilar filmga diqqat berishmaydi va boshqa narsa bilan shug'ullana boshlaydilar yoki bir-biri bilan gaplashib o'tirishadi. Natijada film mazmuni yuzaki o'zlashtiriladi.

Agar film qiziqarli bo'lsa o'quvchilar uni qiziqib diqqat bilan tomosha qilishadi. Ammo ularni faoliyati shunda ham nazorat qilinsa filmni mazmunini tahlil qila olishmaydi. Shuning uchun film boshlanishidan oldin o'qituvchi filmni maqsadini, unda nimalar tasvirlanganini, qanday savollarga o'quvchilar javob topishini kirish suhbatida tushuntiradi. Bundan tashqari o'qituvchi kirish suhbatida filmni qaerlariga e'tibor berishni, qaerlarini alohida ajratib tahlil qilinishini tushuntradi. Masalan, O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursida "Qizilqum" mavzusini o'tishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- asosiy relyef shakllariga;
- o'simlik bilan qoplanish darajasiga;
- hayvonot dunyosiga.



Filmni ko'rish jarayonida o'quvchilar qo'yidagi savollarga javob berishlari lozim: "Barxan nima", "Qum tepaliklari" nima; cho'lda asosiy transport vazifasini bajaruvchi hayvonni aniqlang.

Geografiya ta'limida o'quv kinofilmlarini yana bir asosiy shartlaridan biri o'qituvchini film namoyishida faol ishtirok etishidir. Eng yaxshi va qiziqarli film bo'lgan taqdirda ham o'qituvchi darsni boshqarishi shart hisoblanadi. Film namoyishi jarayonida o'qituvchi ko'rsatilayotgan kinolavhalarga izoh berib borish lozim. Kerakli joylarda film namoyishini to'xtatib bilimlarni chuqurlashtirishi mumkin. Ayrim nazariy qonun qoidalarni kengroq tushuntirib berishi, so'ngra film namoyishini davom ettirishi mumkin.

Filmni ko'rish davomida o'qituvchini izoxlari o'quvchilarga xalaqit bermasligi lozim. Shuning uchun faqat kerakli joylaridagina izox berish lozim. Agar kinofilmda metodik xatolar bo'lsa o'qituvchi uni to'g'rilab ketishi lozim. Ma'lum bir voqea hodisalarni mohiyatini o'quvchilar yaxshiroq tushunib olishlari uchun filmni namoyishini biroz to'xtatib turish mumkin.

Statistik proektsiya vositalariga diafilmlar, diapozitivlar, kodoskoplar kiradi. Ulardan dars jarayonida foydalanish o'quvchilarni bevosita bilimlarni qabul qilishini kuchaytiradi, tasavvurlarni shakllanishiga imkon beradi, geografik voqea va hodisalar orasidagi aloqa va qonuniyatlarni chuqur tushinishga imkon beradi.

Maktab geografiyasining deyarli barcha mavzulari ayniqsa tabiiy geografiya predmetlarida diafilm yoki diapozitivlarda aks etgan. Diafilmlarni yuqori darajadagi ko'rgazmaliligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- darslikning mavzulariga mos kelishi;
- xujjat (dalil) asosida ekanligi (fotorasmlar, chizmalari va boshqalar);
- tasvirni aniqligi va yorqinligi;
- ko'rsatilayotgan geografik voqea va hodisalarni kerakli o'lchamda kattaytirish yoki kichraytirish imkonini mavjudligi;
- tasvirni qancha vaqt kerak bo'lsa shuncha namoyish qilish imkoni borligi.

Geografiya ta'limi sohasida ishlab chiqarilgan diafilmlar va diapozitivlar ko'pincha rangli qilib chiqariladi, bu esa o'quvchilarni bilim faoliyatini jadallashtiradi.

Umumta'lim maktablarini hamda akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini axborotlashtirish zamonaviy ta'limning barcha soxalarini eng muhim va dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi vaqtda bilim olishni axborotlashtirish va axborot vositalaridan foydalanishni tashkil etish bo'yicha juda ko'p ishlar amalga oshirilgan.

Umumta'lim maktablarini axborotlashtirish murakkab masalalardan bo'lib hisoblanadi. Chunki axborot vositalarini takomillashtirish va yangilarini ishlab chiqish bo'yicha muntazam ilmiy-tadqiqot va tajriba -sinov ishlari olib boriladi. Buning



natijasida axborot vositlarini yangi modellari vujudga keladi. Shuning uchun o'quv muassalarini axborotlashtirish uchun doimo axborot vositalarini yangilab turish lozim.

Geografiya fani va geografiya ta'limida axborot texnologiyalaridan keng qo'llanilmoqda. Geografmiya ta'limida axborot texnologiyalardan foydalanishni quyidagi shart-sharoitlarini ta'kidlab o'tish lozim:

- geografiya o'qituvchisi axborot texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi shart;

- maktab o'quvchilari kompyuterlardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi shart;

- maktabda kompyuterlar sinfi bo'lishi shart.

Geografiya ta'limida axborot texnologiyalarni qo'llash quyidagi soxalarda olib borilmoqda: elektron darsliklardan foydalanish; elektron xaritalardan foydalanish; internet imkoniyatlaridan foydalanish; videofilmlardan foydalanish; masofaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish.

Hozirgi davrda juda ko'p darsliklarning elektron versiyalari yaratilmoqda. Shu munosabat bilan o'quvchilar berilgan mavzuni elektron darslikdan topib uni o'qituvchi yordamida yoki mustaqil o'rganishi mumkin. Darsni o'qituvchi boshqarib turish mumkin. Bunda o'qituvchi matnni o'rganishda izoxlar berib boradi. Matndagi chizmalar, rasmlar, xaritalar, jadvallar aloxida tushuntiriladi. Darsni oxirida o'qituvchi kompyuter orqali o'quvchilarga savollar berishi mumkin. O'quvchilar esa kompyuter orqali javob berishadi. Ularning bergan javoblari o'qituvchi tomonidan baholanadi.

Geografiya ta'limida xaritalar asosiy o'quv vositasitalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun xaritalar bilan mustaqil ish bajarayotganida elektron xaritalardan foydalanish mumkin. Elektron xaritalar orqali quyidagi ishlarni bajarishi mumkin:

- elektron xarita orqali tabiiy geografik va iqtisodiy geografik tavsiflar tuzish. Masalan, iqlim xaritalaridan foydalanib ma'lum bir materik yoki hudud iqlimi tavsifini tuzish yoki bo'lmasa iqtisodiy geografik xaritalardan foydalanib ayrim mamlakatlar yoki hududlarga iqtisodiy ta'rif berish va h.k;

- internet imkoniyatlaridan foydalanib geografiyaning turli soxalari bo'yicha yangi-yangi ma'lumotlar olish mumkin. Masalan, kundalik iqlim haqida, mamlakatlar haqida, aholi haqida, xo'jaligi va geosiyosiy sharoit haqida va h.k;

- geografiya ta'limida videofilmlar juda katta ahamiyatga ega. video filmlardan quyidagi soxalar bo'yicha foydalanish mumkin: a) boshlang'ich tabiiy geografiya kursida; b) materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursida; v) O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganishda; g) O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o'rganishda; d) jaxon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursini o'rganishda; ye) fakultativ mashg'ulotlarda; j) geografik to'garaklarda va h.k.;



- masofaviy o'qitish geografiya ta'limida endi rivojlanib kelmoqda. Masofaviy o'qitish usulidan malaka oshirish kurslarida keng foydalanish mumkin.

Masofali ta'lim. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti boy chet el va milliy tajribalar tadqiqotlar yo'nalishlari umuman dolzarbligini tasdiqlaydi. Yangi pedagogik axborot va telekommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishga asoslangan ta'lim olish metodidan biri hisoblangan masofali ta'lim mohiyatini tushunishga bizni yaqinlashtiradi. Ta'limning sintetik integral va gumanistik shakli hisoblanuvchi masofali o'qitishning aynan nazariy va amaliy masalalari ta'limni isloh qilish sharoitlarida milliy ta'lim tizimi oldida turgan muammolar katta qismini hal etishi kerak. Chet el ta'lim tizimlarida masofali o'qitishning tashkil topishi va rivojlanishi jarayonini o'rganishda ta'lim muassalarida masofali o'qitishni amaliy tashkil qilish turli shakllari va variantlarini hamda masofali ta'limni didaktik ta'minlash vositalarini tahlil qilishga e'tiborni qaratish zarur.

